


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

**60412400- Agrobiznes va investitsion faoliyat bakalavriat ta'lim yo'nalishining
malaka talablari**

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo’llanish sohasi	4
1.1.1. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat) ta’lim yo’nalishi Malaka talabining qo’llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	4
1.2.3. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
Bibliografik ma’lumotlar.....	8
Kelishuv varag’i.....	9

1. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi

60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi.

1.1.1. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi **60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat** ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo’nalish bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

- ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va fan dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat – “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasidagi yo’nalish bo’lib, u ishlab chiqarish, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga yo’naltirilgan qishloq xo’jalik korxonalari, kooperativlari va agroklastarlarda biznes yuritish va boshqarish usullari, investitsiya va investitsion faoliyat, ulardan ratsional foydalanish hamda ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini tashkillashtirish, ishlab chiqarish va biznes bilan bog’liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

- agrobiznes;
- investitsion faoliyat;
- boshqaruv jarayonlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassalalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida korxona, tashkilot va muassasalar samaradorligini va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- korxonalarining investitsiya jozibadorligini oshirish, agrobiznes munosabatlarni tartibga solish;

- qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish tizimlari;

- ilmiy tadqiqot jarayonlari.

60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarda ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish-texnologik;
- ilmiy-tadqiqot;
- loyiha- texnologik;
- agrokonsalting.
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- qishloq xo'jalik korxonalari, kooperativlari va agroklastarlarda biznesni tashkil etish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

- agrobiznesda texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

- ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- sohaga oid muammolar echimlarini amaliyotga tadbiiq etish;

- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasiga, yong'inga, texnika va hayot xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatda:

–qishloq xo‘jalik korxonalari, kooperativlari va agroklastarlarda biznes va investitsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish;

–qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida samarali va resurstejamkor faoliyatni tashkil etish va boshqarish;

–zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo‘llash;

–ilg‘or texnologik jarayonlarni qo‘llash;

–ilmiy asoslangan qishloq xo‘jalik tizimlarini qo‘llash va tavsiyanomalar berish;

–yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

–tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ta‘minlash.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

–ilmiy-tadqiqot institutlari va agrosanoat klasterlarining innovatsiyalarni, ilm-fan yutuqlari va yangiliklarini joriy etish bo‘yicha ilmiy markazlarida agrobiznesni tashkil etish va zamonaviy boshqarish usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

–agrar sohada biznesni tashkil etish va boshqarish tizimini ta‘minlashga bag‘ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish va tizimlashtirish;

–samarali biznes faoliyatini ta‘minlash borasidagi muammoli mavzular bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

–internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

–ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

–tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Loyiha – texnologik faoliyatida:

–tegishli bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

–faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyati va ularga tayyorgarlik;

–mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va modellashtirish, boshqarish va sifatini yaxshilash uchun bilim va mahoratdan foydalanish;

–loyihaviy va dasturiy xujjatlarni ishlab chiqish;

–amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

Agrokonsalting faoliyati:

– qishloq xo‘jalik korxonalari, kooperativlari va agrosanoat klasterlarida biznes va investitsion faoliyatni tashkil qilish va yuritish, fermer xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish, mehnat jamoasi bilan ishlashni boshqarish usullari, er, ishlab chiqarish, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda boshqaruv qarorlarini tadbiq qilish va mexanizmini ishlab chiqish bo‘yicha maslahat berish;

– innovatsion ishlanmalar bo‘yicha sharhlar tuzish;

– ilg‘or tajribalar va fan yutuqlari to‘g‘risida ma‘lumotlar izlash va ularni umumlashtirish hamda ommalashtirish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

– yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

– biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60412400 – Agrobiznes va investitsion faoliyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- tadbirkorlik asoslari, iqtisodiy nazariya, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish iqtisodiyotini, menejment asoslarini chuqur o'zlashtirish va amalga tatbiq eta bilish;
- iqtisodiy geografiya, iqtisodiy matematika, ekonometrika asoslarini o'zlashtirgan holda iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, rejalashtirish va bashoratlash;
- agrokonsalting xizmatlarini tashkil qilish va ko'rsatish jarayonlarini boshqarish;
- agrobiznesni tashkil qilish, o'simlikchilik, chorvachilik, meyvachilik, sabzavotchilik, o'simliklar karantini, birja ishi, metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashga oid bilim va ko'nikmalardan amaliyotda foydalana olish;
- agrobiznesni boshqarish vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga etakchilik qilishni bilish;
- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- investitsion loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish mexanizmlarini o'zlashtirish va raqobat, risk menejmenti usullarini qo'llay olish;
- investitsion muhit yaratish, manbalarni izlab topish, investitsiyalarni iqtisodiy baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- bojxona ishi, metrologiya, mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlash bilimlariga ega bo'lish va amalda qo'llay olish; oziq-ovqat xavfsizligi dasturining bajarilishida ishtirok etish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, uqib-o'rganish natijalari, agrobiznes, investitsion faoliyat, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, investitsiya, biznes reja, agrokonsalting, innovatsiya, tadbirkorlik, strategiya, iqtisodiyot.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

Toshkent davlat agrar universiteti

Rektor  B. Sulaymonov

2021 yil « 19 » 08



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi

Direktor v.b.  M. Esonov

2021 yil « 24 » 08
M.O'.



O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi
vazirining iqtisod, innovatsion rivojlanish va
investitsiyalar masalalari bo'yicha
maslahatchisi

 A. Shukurov

2021 yil « 20 » 08
M.O'.



Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Rektor  K. Komilov

2021 yil « 19 » 08
M.O'.



Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi
iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor  T. Farmonov

2021 yil « 19 » 08

M.O'.

